BO'LAJAK O'QITUVCHILAR PEDAGOGIK MAHORATINI VIDEO TAHLIL VA REFLEKSIYA ORQALI RIVOJLANTIRISH: UZLUKSIZ PEDAGOGIK AMALIYOT TAJRIBASI

Habibullayeva Muxlisaxon Yorqinjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti,
Pedagogika nazariyasi va tariixi yo'nalishi
2-bosqich magistranti.
muxlisahabibullayeva42@gmail.com
+998939142106
Boltayeva Muhayyo Lutfillayevna
Pedagogika fanlari nomzodi,dotsent
mboltayeva925@gmail.com
+998902786892
https://doi.org/10.5281/zenodo.23377069

Annotatsiya. Maqolada pedagogika yo'nalishi talabalarining pedagogik mahoratini uzluksiz pedagogik amaliyot jarayonida interaktiv vizual vositalar (video tahlil, mikro-dars, video-keys, rol o'yinlari, elektron portfolio) asosida rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari yoritilgan. Mahoratning oltita tarkibiy qismi va vositalarning didaktik imkoniyatlari o'zaro bog'langan, besh bosqichli texnologiya modeli, uning baholash mezonlari va tajriba-sinov dizayni taklif etilgan. Natijalar oliy ta'lim muassasalarida pedagogik amaliyotni tashkil etishda qo'llanishi mumkin.
Kalit so'zlar: pedagogik mahorat, uzluksiz pedagogik amaliyot, video tahlil, refleksiya, mikro-dars, mentorlik, kasbiy ko'rish.

Аннотация. В статье рассматриваются научно-методические основы развития педагогического мастерства студентов педагогических направлений в ходе непрерывной педагогической практики на основе интерактивных визуальных средств (видеоанализ, микро-урок, видео-кейс, ролевые игры, электронное портфолио). Предложены пятиэтапная модель технологии, критерии оценки и дизайн педагогического эксперимента.
Ключевые слова: педагогическое мастерство, непрерывная педагогическая практика, видеоанализ, рефлексия, микро-урок, наставничество.

Abstract. The article examines the theoretical and methodological foundations of developing pedagogical skills of pre-service teachers during continuous teaching practice through interactive visual tools (video analysis, microteaching, video cases, role-play, e-portfolio). A five-stage technology model, assessment criteria and a quasi-experimental design are proposed.
Keywords: pedagogical mastery, continuous teaching practice, video analysis, reflection, microteaching, mentoring.

Kirish. Jahon ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogik amaliyotning o'rni tobora ortib bormoqda. Xalqaro tajribada amaliyot nazariy tayyorgarlikning oddiy davomi emas, balki o'qituvchi tayyorlash tizimining markaziy qismi sifatida qaraladi: talaba mentor rahbarligida dars rejalashtiradi, o'tkazadi va o'z faoliyatini tahlil qiladi. O'zbekistonda ham pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Prezidentning 2025-yil 28-apreldagi PF-73-sonli Farmoni pedagogik amaliyotni nazariy bilimlar bilan uzviy bog'lash va talabalarning amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishni taqozo etadi. Biroq amaliyotda muayyan qarama-qarshilik saqlanib qolmoqda. Talaba o'z faoliyatini asosan dars jarayonida his qiladi, uning harakatlari ko'pincha yozib olinmaydi va chuqur tahlil qilinmaydi, mentorning fikri esa umumiy xarakterda qoladi. Natijada talaba o'z darsini tashqaridan ko'ra olmaydi, kuchli va zaif tomonlarini aniq ajrata olmaydi, pedagogik mahoratni tizimli rivojlantirish imkoniyati cheklanadi. Bu muammoni hal etishda interaktiv vizual ta'lim vositalari katta imkoniyatga ega. Video yozuv talaba faoliyatini ko'rinadigan, takrorlanadigan va birgalikda tahlil qilinadigan qiladi. Shunga qaramay, mahalliy ilmiy adabiyotlarda pedagogik mahoratni uzluksiz amaliyot sharoitida bu vositalar yordamida oshirishning yaxlit texnologiyasi yetarli ishlab chiqilmagan.

Tadqiqotning maqsadi pedagogika yo'nalishi talabalarining pedagogik mahoratini uzluksiz pedagogik amaliyot jarayonida video tahlil va boshqa interaktiv vizual vositalar asosida rivojlantirishning nazariy asoslarini aniqlash, texnologiya modelini taklif etish va uning tajriba-sinov dizaynini asoslashdir.

Tadqiqot vazifalari: (1) mahorat va uning komponentlari haqidagi ilmiy yondashuvlarni tahlil qilish; (2) video tahlil va refleksiyaning psixologik-didaktik asoslarini aniqlash; (3) vositalarning mahorat komponentlariga ta'sirini asoslash; (4) besh bosqichli texnologiya modelini va baholash mezonlarini ishlab chiqish; (5) tajriba-sinov dizaynini belgilash.

Adabiyotlar sharhi.

Pedagogik mahorat tushunchasi. Rus pedagogik maktabida mahorat kasbiy professionallik va pedagogik faoliyat tuzilmasi nuqtai nazaridan o'rganilgan. A.K. Markova professionallikni kasbiy faoliyatning yuqori darajasi va shaxsning kasbiy rivojlanishi birligi sifatida talqin qiladi [1]. N.V. Kuzmina o'qituvchi faoliyatini gnostik, loyihalash, konstruktiv, kommunikativ va tashkilotchilik komponentlariga ajratgan [2]. V.A. Slastenin va hamkasblari mahoratni pedagogik faoliyat va shaxs sifatlarining birligi deb izohlaydi [3]. L. Shulman esa o'qituvchi bilimining alohida turi sifatida fan mazmunini o'qitish usullari bilan uyg'unlashtiruvchi pedagogik-mazmuniy bilimni ajratib ko'rsatgan [6]. O'zbekistonda pedagogik texnologiya va mahorat masalalari N. Saidahmedov va A. Ochilov [17], J.G'. Yo'ldoshev va S.A. Usmonov [18], O'. Tolipov va M. Usmonboyeva [19] asarlarida yoritilgan.

Ushbu yondashuvlarni umumlashtirib, tadqiqotda mahorat oltita o'zaro bog'liq komponent orqali qaraladi: motivatsion-qadriyatli, bilish, faoliyat, kommunikativ, refleksiv va ijodiy. Mahorat kompetensiyadan farqli ravishda ularning real vaziyatlarda yuqori sifat va ijodkorlik bilan namoyon bo'lishini ifodalaydi.

Refleksiv amaliyot nazariyasi. J. Dyui fikrlashni tajribani tahlil qilish jarayoni sifatida talqin qilgan [4]. D. Shyon o'z faoliyatini uning davomida va undan keyin tahlil qila oladigan "refleksiv amaliyotchi" modelini asoslagan [5]. D. Kolb tajribaviy ta'lim siklini (aniq tajriba, kuzatish va refleksiya, mavhum tushunish, faol tajriba) taklif qildi [7]. F. Korthagen ALACT

modelida refleksiyani besh bosqichli sikl sifatida ifodalagan: harakat, orqaga nazar, muhim jihatlarni anglash, muqobil usullarni yaratish va yangi sinov [8, 9]. Bu modellarning umumiy g'oyasi shuki, tajribaning o'zi emas, balki uning tizimli tahlili o'rganishni ta'minlaydi.

Video tahlil va kasbiy ko'rish. M. Sherin va E. van Es o'qituvchilar video klub doirasida o'z darslarini tahlil qilganda, ularning kuzatuvi baholashdan izohlashga, ya'ni o'quvchilar fikrlashini tushunishga o'tganini ko'rsatgan va bu hodisani "kasbiy ko'rish" (professional vision) deb atagan [10]. Video ishlatilgan tadqiqotlarning keng sharhi video tahlil o'qituvchilarning kuzatish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishini, biroq samara tahlilni tashkil etish sifatiga, ya'ni aniq yo'naltiruvchi savollar va hamkorlikka bog'liqligini ko'rsatadi [13]. T. Tripp va P. Rich ham o'z darsini video orqali tahlil qilish o'qituvchining o'z amaliyotiga tanqidiy nazar bilan qarashiga yordam berishini qayd etgan [18a].

Amaliyotni mashq qilish. P. Grossman va hamkasblari kasbiy amaliyotni o'rgatishning uchta usulini ajratgan: amaliyotning namunalarini ko'rsatish, uni tarkibiy qismlarga ajratish va amaliyotga yaqinlashtirilgan sharoitda mashq qilish [11]. Mikro-dars metodi aynan shu g'oyaga mos: u qisqartirilgan, kichik guruhdagi dars bo'lib, odatda video yozuv va qaytar aloqa bilan birga qo'llanadi [12]. Rol o'yinlari ham real vaziyatlarni xavfsiz muhitda mashq qilish imkonini beradi.

Qaytar aloqa va ta'limning psixologik asoslari. J. Hattie va H. Timperley fikr-mulohaza uchta savolga javob berganda samarali bo'lishini ko'rsatgan: maqsad nima, hozirgi holat qanday va keyingi qadam qanday [14]. L.S. Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi g'oyasiga ko'ra, rivojlanish mentor yordamida faol faoliyatda kechadi [15]. A. Bandura ijtimoiy o'rganish nazariyasida kuzatish orqali o'rganishni asoslagan [16], R. Mayer multimedia tamoyillari esa vizual materialdan foydalanishda o'quvchi e'tiborini boshqarish zarurligini ta'kidlaydi [17b]. Sharh shuni ko'rsatadiki, xorijiy tadqiqotlarda video tahlil, mikro-dars va refleksiya alohida-alohida chuqur o'rganilgan, mahalliy adabiyotlarda esa pedagogik mahorat asosan nazariy jihatdan yoritilgan. Bu vositalarni mahoratning aniq komponentlari bilan bog'lagan, uzluksiz amaliyotga moslashtirilgan va baholash mezonlari bilan ta'minlangan yaxlit texnologiya yetishmaydi.

Metodlar.

Tadqiqot nazariy-konseptual xarakterga ega bo'lib, quyidagi metodlardan foydalanildi: mahalliy va xorijiy ilmiy manbalarning nazariy va solishtirma tahlili; pedagogik modellashtirish (texnologiya modelini loyihalash); hujjatlar tahlili (amaliyot dasturlari, kundaliklar, hisobotlar); tajriba-sinov dizaynini ishlab chiqish. Empirik bosqich Namangan davlat pedagogika institutining pedagogika yo'nalishi 4-kurs talabalari bilan rejalashtirilgan (jami 20 talaba). Tajriba kvazieksperimental dizaynda, nazorat guruhi va kirish-chiqish o'lchovlari (pretest-posttest) bilan o'tkaziladi. Mustaqil o'zgaruvchi sifatida besh bosqichli texnologiya, bog'liq o'zgaruvchi sifatida mahorat darajasi va uning oltita komponenti olinadi. Nazorat qilinuvchi o'zgaruvchilar: kurs, o'rtacha o'zlashtirish va mentor. O'lchov vositalari: Likert shkalasidagi so'rovnoma, bilim testi, kuzatuv kartasi, video tahlil protokoli, refleksiv yozuv rubrikasi va ekspert baholash varaqasi. Vositalarning ishonchliligi Kronbax alfa koeffitsienti, baholovchilar kelishuvi esa Koen kappa orqali tekshiriladi. Ma'lumotlarga ishlov berishda normallik Shapiro-Uilk mezoni bilan aniqlanadi, so'ng guruhlararo farq Styudent t-mezoni (yoki Mann-Uitni), daraja taqsimoti Pirson χ^2 mezoni, samara kattaligi Koen d

koeffitsienti bilan baholanadi. Tadqiqotda ishtirokchilarning ongli roziligi olinadi, video yozuvlar maxfiy saqlanadi.

Natijalar va muhokama

1. Amaliyotdagi muammolarning aniqlanishi. Hujjatlar tahlili va adabiyotlar asosida an'anaviy amaliyotning to'rtta cheklovi ajratildi: talaba faoliyatining yozib olinmasligi, tahlilning yuzakiligi, mentor qaytar aloqasining umumiyligi va refleksiyaning tizimli emasligi. Ular mahoratning faoliyat, kommunikativ va ayniqsa refleksiv komponentlari rivojlanishini cheklaydi.

2. Vositalar va mahorat komponentlarining o'zaro mosligi. Har bir interaktiv vositaning didaktik vazifasi aniq komponent bilan bog'landi (1-jadval).

1-jadval. Vositalarning mahorat komponentlariga ta'siri

Vosita	Asosiy didaktik vazifa	Rivojlantiriladigan komponent
Video tahlil	O'z faoliyatini tashqaridan ko'rish, kasbiy ko'rishni shakllantirish	Refleksiv, kommunikativ
Mikro-dars	Dars elementlarini qisqa vaqtda mashq qilish	Faoliyat, bilish
Video-keys	Real vaziyatni tahlil qilish va yechim izlash	Bilish, ijodiy
Rol o'yinlari	Pedagogik vaziyat va muloqotni xavfsiz sharoitda sinash	Kommunikativ, motivatsion-qadriyatli
Elektron portfolio	Rivojlanish dinamikasini kuzatish va o'z-o'zini baholash	Refleksiv, motivatsion-qadriyatli

3. Besh bosqichli texnologiya modeli. Korthagen sikli, Grossmanning amaliyot o'rgatish usullari va Hattie-Timperley fikr-mulohaza tamoyillariga tayanib, texnologiya besh bosqichdan iborat model sifatida loyihalandi (2-jadval).

2-jadval. Texnologiyaning besh bosqichi

Bosqich	Mazmuni	Vositalar	Kutilgan natija
1. Diagnostika	Boshlang'ich mahorat darajasi va individual profil	So'rovnoma, test, kirish mikro-darsi	Kuchli va zaif komponentlar aniqlanadi
2. Tayyorgarlik	Namunaviy darslar va keyslarni tahlil qilish	Video-keys, namunaviy dars yozuvlari	Samarali amaliyot haqida tasavvur shakllanadi
3. Amaliy mashq	Dars elementlarini mashq qilish	Mikro-dars, rol o'yinlari, video yozuv	Faoliyat ko'nikmalari rivojlanadi

Bosqich	Mazmuni	Vositalar	Kutilgan natija
4. Video tahlil va refleksiya	Yozuvni protokol bo'yicha mentor bilan tahlil qilish	Tahlil protokoli, refleksiv yozuv	O'z faoliyatini tahlil qilish qobiliyati oshadi
5. Real amaliyotga ko'chirish	Natijani maktab darsida qo'llash	Real dars kuzatuvi, elektron portfolio	Mahorat barqaror ko'nikmaga aylanadi

Modelning muhim jihati sikllilikdir: 4-bosqichdagi xulosalar keyingi mikro-darsni rejalashtirishga qaytadi. Bu uzluksiz amaliyot talabiga mos bo'lib, texnologiyani 1-4 kurs bo'ylab spiral shaklida joriy etish imkonini beradi.

4. Baholash mezonlari. Mahorat darajasi yuqori, o'rta va past kategoriyalarda baholanadi. Mezonlar: dars maqsadining aniqligi (faoliyat), o'quvchilar bilan muloqot sifati (kommunikativ), o'z darsini tahlil qilishda tavsifdan tahlilga va muqobil yechim taklif qilishga o'tish (refleksiv), nostandart vaziyatdagi yechim (ijodiy). Refleksiv yozuvlar uchta chuqurlik darajasida kodlanadi: tavsiflovchi, tahliliy va ijodiy.

5. Tajriba-sinov dizayni. Texnologiyaning samaradorligini tekshirish uchun nol farazga (guruhlar o'rtasida farq yo'q) qarshi muqobil faraz (tajriba guruhida mahorat darajasi yuqori) ilgari surildi, ahamiyatlilik darajasi $\alpha = 0{,}05$. Ichki validlikka tahdidlar (guruhlarning boshlang'ich tengsizligi, mentor ta'siri, Xotorn effekti) guruhlarni tenglashtirish, mentorlar tarkibini bir xil qilish va nazorat guruhida ham teng davomiylikdagi amaliyot o'tkazish orqali kamaytiriladi.

Muhokama. Taklif etilgan texnologiya xorijiy tadqiqotlardagi topilmalarga tayanadi: kasbiy ko'rishning rivojlanishi [10], amaliyotni tarkibiy qismlarga ajratib mashq qilish [11] va aniq yo'naltirilgan qaytar aloqa [14]. Uning mahalliy kontekstdagi yangiligi vositalarni mahoratning oltita komponenti bilan bog'lash, besh bosqichli sikl va baholash mezonlari bilan to'ldirish hamda uzluksiz amaliyotga moslashtirishdadir. Shu bilan birga, video yozuvdan foydalanish vaqt, texnik jihozlar va maxfiylik bo'yicha qo'shimcha talablarni keltirib chiqaradi. Mentorlarning video tahlil bo'yicha tayyorgarligi texnologiya samaradorligining muhim sharti hisoblanadi [13]. Tadqiqotning cheklovi sifatida nisbatan kichik tanlanma va qisqa muddat qayd etiladi, shu sababli natijalarni umumlashtirishda ehtiyotkorlik talab etiladi.

Xulosa

Tadqiqot natijalariga ko'ra, pedagogik mahorat oltita o'zaro bog'liq komponentdan iborat integrativ sifat bo'lib, uni uzluksiz amaliyotda rivojlantirish tajribani tizimli tahlil qilishni talab etadi. Video tahlil, mikro-dars, video-keys, rol o'yinlari va elektron portfolio talabaning faoliyatini ko'rinadigan, takrorlanadigan va tahlil qilinadigan qiladi, bu esa mahoratning refleksiv, faoliyat va kommunikativ komponentlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Taklif etilgan besh bosqichli texnologiya (diagnostika, tayyorgarlik, amaliy mashq, video tahlil va refleksiya, real amaliyotga ko'chirish) hamda baholash mezonlari oliy ta'lim muassasalarida pedagogik amaliyotni tashkil etishda mentorlar va talabalar faoliyatida qo'llanishi mumkin. Keyingi tadqiqotlar texnologiyaning samaradorligini katta tanlanmada va uzoq muddatli kuzatuvda tekshirishga yo'naltirilishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Markova A.K. Psixologiya professionalizma. Moskva: Znanie, 1996.
2. Kuzmina N.V. Professionalizm lichnosti prepodavatelya i mastera proizvodstvennogo obucheniya. Moskva: Vysshaya shkola, 1990.
3. Slastenin V.A., Isaev I.F., Shiyanov E.N. Pedagogika. Moskva: Akademiya, 2002.
4. Dewey J. How We Think. Boston: D.C. Heath, 1933.
5. Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. New York: Basic Books, 1983.
6. Shulman L.S. Those who understand: Knowledge growth in teaching // Educational Researcher. 1986. Vol. 15, No. 2. P. 4-14.
7. Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1984.
8. Korthagen F.A.J. Linking Practice and Theory: The Pedagogy of Realistic Teacher Education. Mahwah: Lawrence Erlbaum, 2001.
9. Korthagen F., Vasalos A. Levels in reflection: core reflection as a means to enhance professional growth // Teachers and Teaching. 2005. Vol. 11, No. 1. P. 47-71.
10. Sherin M.G., van Es E.A. Effects of video club participation on teachers' professional vision // Journal of Teacher Education. 2009. Vol. 60, No. 1. P. 20-37.
11. Grossman P., Compton C., Igra D., Ronfeldt M., Shahan E., Williamson P. Teaching practice: A cross-professional perspective // Teachers College Record. 2009. Vol. 111, No. 9. P. 2055-2100.
12. Allen D.W., Eve A.W. Microteaching // Theory Into Practice. 1968. Vol. 7, No. 5. P. 181-185.
13. Gaudin C., Chaliès S. Video viewing in teacher education and professional development: A literature review // Educational Research Review. 2015. Vol. 16. P. 41-67.
14. Hattie J., Timperley H. The power of feedback // Review of Educational Research. 2007. Vol. 77, No. 1. P. 81-112.
15. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge: Harvard University Press, 1978.
16. Bandura A. Social Learning Theory. Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1977.
17. Saidahmedov N., Ochilov A. Yangi pedagogik texnologiya: mohiyati va zamonaviy talablar. Toshkent, 2003.
18. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent: O'qituvchi, 2004.
19. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. Toshkent, 2006.
20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi PF-73-sonli "Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
21. Tripp T., Rich P. Using video to analyze one's own teaching // British Journal of Educational Technology. 2012. Vol. 43, No. 4. P. 678-704.
22. Mayer R.E. Multimedia Learning. 2nd ed. Cambridge: Cambridge University Press, 2009.